

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Hakimova Marjona Iskandarzoda*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqish talabasi*

**Annotation.** The relevance of the article is determined by the need to form innovative abilities in future elementary school teachers, to prepare them for the implementation of innovative activities. It is highlighted that one of the urgent pedagogical problems is the training of innovative competent teachers who are able to carry out their professional activities using the necessary effective educational tools and innovations in education.

**Аннотация.** Актуальность статьи определяется необходимостью формирования инновационных способностей у будущих учителей начальных классов, подготовки их к осуществлению инновационной деятельности. Подчеркнуто, что одной из актуальных педагогических проблем является подготовка инновационных компетентных педагогов, способных осуществлять свою профессиональную деятельность с использованием необходимых эффективных средств обучения и инноваций в образовании.

**Annotatsiya.** Maqolaning dolzarbligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion qobilyatlarni shakllantirishi, ularning innovatsion faoliyatini amalga oshirishga tayyorlash zarurati bilan belgilanadi. O'qituvchining ta'lim jarayonida zarur samarali ta'lim vositalari va ta'limdagi yangiliklardan foydalangan holda kasbiy faoliyatini amalga oshirishga qodir innovatsion kompetentli o'qituvchilarni tayyorlash dolzarb pedagogik muammolardan biri ekanligi yoritilgan.

**Key words:** innovation, technology, competence, innovative process, innovative education, technical tools, competence, modern education, lifelong learning, SMART technology.

**Ключевые слова:** инновация, технология, компетентность, инновационный процесс, инновационное образование, технические средства, компетентность, современное образование, непрерывное обучение, SMART-технология.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, texnologiya, kompetentlik, innovatsion jarayon, innovatsion ta'lim, texnik vositalar, kompetensiya, zamonaviy ta'lim, hayot davomida o'qish, SMART texnologiyasi.

Jahonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish, tizimda axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan keng foydalanish hamda innovatsion kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning kreativ modellarini ishlab chiqish masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlashda izlanuvchanlik, topqirlik va tadqiqotchilik kabi pedagogik xususiyatlarga bo'lgan rag'batlantirishning motivatsion ta'sirini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining rivojlanishi o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli ortib borishi bilan xarakterlanib, u bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, sifatli ta'limga yo'naltirilgan motivatsiyasini faollashtirish, ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatning o'rni va rolini qayta ko'rib chiqish, ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda globallashtirish jarayoni ijtimoiy – madaniy mohiyatiga ko'ra raqobatbardosh, izlanuvchan, kompetentli kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'lim sifatini hamda talabalarning kasbga bo'lgan qiziqishini orttiradi hamda pedagoglarni o'z ustida ishlash samaradorligini oshiradi. Shu o'rinda prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etamiz"<sup>1</sup> dagan fikrlari ishimizning maqsad va vazifasiga bevosita mos keladi.

Pedagogik adabiyotlarda "Innovatsion ta'lim", "Innovatsion jarayon" va "Innovatsion faoliyat" terminlari yaqin o'tmishda kam kuzatilar edi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi 1979-yilda "Rim klubi"da birinchi bor qo'llanilgan. Bu so'zning zamirida ta'limda yangiliklarni tashkil qilish, ularni o'zlashtirish, yangilikdan foydalanish hamda ularni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

**Innovatsion ta'lim** – ta'lim oluvchida yangi fikr, g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar ta'lim innovatsiyalari yoki innovatsion ta'lim texnologiyalari deb nomlanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, oldingidan ancha samarali natijaga erisha oladigan shakl, metod, texnologiyalar.

Ta'lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta'lim konsepsiyasidagi, o'quv dasturidagi, tarbiya va o'qitish usullaridagi, usul va uslublardagi yangilik va o'zgarishlardir. Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar so'zining tub ma'nosida pedagogning o'rganish, umumlashtirish va ilg'or pedagogik tajribalarni

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizniqat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.:O'zbekiston,2017. – 146 b.

ommalshtirish va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tadbiiq etish muammosi yotadi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” o‘zaro farqli tushunchalar hisoblanadi: **kompetensiya** – bu mutaxassisning shaxs sifatlaridan qat’iy nazar uning professionalligining umumiy tavsifi. U rasmiy, uning bevosita tashuvchisidan alohida mavjud bo‘ladi va egallanishiga muhtoj bo‘ladi. **Kompetentlik** esa shaxsiy egallangan kompetensiya, “shaxsning kasbdagi” ifodalanishi.

**Innovatsion kompetentlik** deganda biz pedagogning shaxsiy va kasbiy mahoratini uning innovatsion faoliyatida namoyon bo‘lishining ma’lum bir darajasini tushunamiz. Boshqacha qilib aytganda, innovatsion kompetentlik pedagogning ta’limiy va samarali yangiliklardan foydalangan holda kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining natijasidir.

Hozirgi kunda o‘quv jarayonida SMART texnologiyalaridan foydalanish samarali natija bermoqda. SMART (aqli, aql-idrokli, texnologik) – qisqartma so‘z bo‘lib, mohiyati jihatidan yangi ta’lim muhitidir. Uni dastlab 1965-yili Paul J Meyer, so‘ngra 1981-yili George T. Doran o‘z ilmiy ishlarida qo‘llaganlar, SMART butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o‘tish uchun o‘qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya’ni ta’lim faoliyatini birlashtirishdir.

O‘quv jarayonida SMART texnologiyani tadbiiq etishning o‘qituvchilar va talabalar uchun afzalliklari tomonlari quyidagilardan iborat:

- O‘quv materialini taqdim etishda innovatsion yondashuv;
- Talabalar bilan tezkor qaytar aloqa;
- Birlashgan real va vertual olamni shakllantirish;
- O‘quv jarayonini oson boshqarish;
- Multimediyaning maksimal xilma-xilligi;
- Umumiy axborot ta’lim muhiti;
- Axborot oluvchi manbalar sonining ko‘pligi;
- O‘quv jarayonini oson boshqarish;
- Talabalarning ehtiyoji va darajasiga qarab layoqatini tez va oddiy holda aniqlash;
- Bir qancha o‘quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va axborot almashish uchun tarmoq yaratish imkoniyati;
- Ta’lim berishning jadalligi va sifatining oshishi bilan tezkor qaytar aloqa;
- Ijodkorlikning taraqqiyoti va mustaqil amalga oshirish imkoniyatlari;
- Joylashgan hududi va vaqtiga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarda zarur axborotlarni olish imkoniyati;
- Har qanday vaziyatda tayyorgarlik uchun o‘rganishni boshlashga izm berish imkoniyati.

SMART-ta’limni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, har qanday joyda, istalgan vaqtda foydalanishni ta’minlash uchun maksimal mobillik ta’minlaydigan yuqori tezlikdagi Internet, pedagoglarning yetuk darajada

texnologik kompetensiyaga ega bo'lishi, o'quv jarayonini avtomatlashtirish va zamonaviy holda texnologiyalashtirish zarur...

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimidagi dolzarb vazifalar sifatida qarash mumkin.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Babayeva D.R "Nutq o'zlashtirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent 2018
2. М.Қ.Бапаева. Даму психологиясы. – Алматы, 2014.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizniqat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.:O'zbekiston,2017. – 146 b.
4. С.Н.Цейтлин. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. – Москва, 2000.